

“12” yanvar 2026-yil

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETINING 2026-YIL I YARIM YILLIK ISH REJASI

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Moliyalashtirish manbalari	Ijro uchun mas'ullar
I. Tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish					
1.	Oliy ta'lim transformatsiyasi va islohotlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, tasdiqlangan yo'l xaritalari, Vazirlik buyruq va hay'ati qarorlari ijrosini ta'minlash	Farmoyish hujjatlarining irjosini to'liq, sifatli va o'z muddatida ta'minlash choralari ko'rilish; Ijro intizomi bo'yicha monitoring jarayonini to'liq raqamlashtirish; Ijro monitoringi universitet kengashi va bo'linmalar yig'ilishlarida muntazam muhokama qilinadi.	yili davomida	Universitet mablag'lari	Rektor, barcha prorektorlar, boshqarma va bo'lim boshliqlari, institut direktorlari, fakultet dekanlari, oliy maktab rahbarlari, kafedra mudirlari, markaz rahbarlari
2.	Universitetining transformatsiya va xalqarolashuv bo'yicha Konsepsiyasi hamda 2024-2027-yillarga mo'ljallangan Strategik dasturi ijrosini bosqichma-bosqich ta'minlash	Strategik rivojlanish bo'yicha har bir yo'nalishda amalga oshiriladigan ishlar rejalarini yo'l xaritasiga kiritish Maqsadli ko'rsatkichlarning 2026-yil parametrlarini ishlab chiqish va har chorakda ijrosi bo'cha monitoring tahlilini amalga oshirish OAVda chiqishlar bo'yicha yangi Media reja ishlab chiqish	yil davomida	Byudjet va budjetdan tashqari mablag'lar	Rektor, barcha prorektorlar, boshqarma va bo'lim boshliqlari, institut direktorlari, fakultet dekanlari, oliy maktab rahbarlari, kafedra mudirlari, markaz rahbarlari
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomada belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash	Murojaatnomada belgilangan vazifalarni oliy maktabi va kafedralari majlislarida muhokama qilish va barcha ustozlar e'tiboriga yetkazish; Murojaatnomada belgilangan vazifalar universitet barcha yo'nalishlarining ish rejalarini va yo'l xaritalari dasturiga kiritish hamda ijrosini to'liq ta'minlash	yil davomida	Byudjet va budjetdan tashqari mablag'lar	Rektor, barcha prorektorlar, boshqarma va bo'lim boshliqlari, institut direktorlari, fakultet dekanlari, oliy maktab rahbarlari, kafedra mudirlari, markaz rahbarlari

4.	Korrupsiyaga qarshi kurashish “ Komplayens nazorat ” tizimini boshqarish va samarali faoliyatni tashkil etish	Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limining ishi muntazam tashkil etish; @tsuosanticorruptionbot orqali hamda so‘rovnomalar o‘tkazish orqali monitoring yuritish	yil davomida		Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i
II. O‘quv jarayonini tashkil etish ta‘lim sifatini ta‘minlash, yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini joriy etish					
5.	Mehnat bozori ehtiyojini o‘rgangan holda Universitetda yangi ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha talabalar qabulini tashkil etish	Mehnat bozori ehtiyojini o‘rganish va tahlil qilish, shuningdek, unga mos o‘quv rejalar va dasturlar ishlab chiqish; Yangi ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha normativ hujjatlarni tayyorlash hamda tasdiqlash uchun tegishli davlat tashkilotlariga taqdim etish; Yangi ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha talabalar qabul qilish.	2026-yil may 2026-yil may 2026/2027-o‘quv yilidan	Mablag‘ talab etilmaydi	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i; Institut direktorlari/fakultetlar dekanlari
6.	Universitet ta‘lim dasturlarini xalqaro tan olingan reytinglarda Top-300 talik ro‘yxatga kiruvchi xorijiy oliy ta‘lim muassasalari tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirish va ta‘lim jarayoniga joriy etish	Xalqaro Top-300 universitetlarning ochiq manbalari (veb-saytlar, reytinglar) orqali o‘quv dasturlari tahlil qilish va yangi tendensiyalarni aniqlash; Tahlillar natijasida ta‘lim dasturlari oquv rejalarini va fan dasturlarini mazkur tendensiyalarni inobatga olgan holda takomillashtirish.	2026-yil aprel iyun	Mablag‘ talab etilmaydi	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, institut direktorlari/fakultet dekanlari, oliy maktab boshliqlari/kafedra mudirlari
7.	Ta‘lim sifatini nazorat qilishning kompleks tizimini takomillashtirish	Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida sifat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish; universitetda joriy etilgan raqamli platformalar (Hemis, APS) tizimini takomillashtirish; professor-o‘qituvchilar, talabalar, ish beruvchilar va universitet bitiruvchilari o‘rtasida ta‘lim sifatini oshirish borasida so‘rovnomalar o‘tkazish.	Yil davomida	Mablag‘ talab etilmaydi	Ta‘lim sifati nazorati bo‘limi, Talabalar amaliyoti va karera markazi, institut direktorlari/fakultet dekanlari, oliy maktab boshliqlari/kafedra mudirlari
8.	Talabalar va ish beruvchilarning fikrlarini o‘rgangan holda, shuningdek, xorijiy tajriba asosida	Sharqshunoslik sohasidagi zamonaviy ilmiy tendensiyalar, xorijiy tajriba va ish beruvchilar hamda talabalar fikrlarini o‘rganish;	2026-yil fevral-mart	Mablag‘ talab etilmaydi	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

	sharqshunoslik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan fanlararo integratsiyalashgan kurslar joriy etish	Sharq madaniyati, tillari, falsafasi va iqtisodiyotini boshqa sohalar, xususan, texnologiyalar, siyosatshunoslik va biznes bilan bog'lovchi fanlararo yondashuvlarni aniqlagan holda oquv rejalariga fanlar kiritish.	may		O'quv-uslubiy bo'lim; Institut direktorlari, fakultetlar dekanlari, oliy maktab boshliqlari/kafedra mudirlari
9.	Universitet professor-o'qituvchilarining o'z kasbiy malakasini muntazam oshirib borishiga erishish va o'z pedagogik faoliyatini tahlil etib borish ko'nikmalarini singdiruvchi tizimning intensiv ishlashiga erishish	O'qituvchilar uchun doimiy kasbiy rivojlanish dasturlarini joriy etish; xalqaro hamkor oliy ta'lim muassasalari bilan tajriba almashinuvi dasturlarini joriy etish; xorijiy hamkor universitetlarga malaka oshirishga yuborishni kengaytirish;	Yil davomida	Mablag' talab etilmaydi	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, institut direktorlari/fakultet dekanlari, oliy maktab boshliqlari/kafedra mudirlari
10.	Yetakchi xorijiy hamkor oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash kolamini kengaytirish	Xorijdagi etakchi hamkor universitetlar bilan muzokaralar o'tkazish hamda o'zaro hamkorlik bo'yicha memorandumlari va shartnomalar imzolash; Hamkor universitetlar bilan birgalikda qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha meyoriy o'quv-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish; Qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha belgilangan tartibda kvota ajratish bo'yicha vazirlikka taklif kiritish.	2026-yil yanvar-avgust	Universitet va buyurtmachilalar hisobidan	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Strategik rivojlantirish va transformasiya boshqarmasi, O'quv-uslubiy bo'limi, Xalqaro hamkorlik bo'limi
11.	Universitet ta'lim jarayoniga masofaviy ta'limni joriy etish.	Masofaviy ta'lim joriy etiladigan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha masofaviy ta'lim uchun normativ-hujjatlar bazasini ishlab chiqish; Tasdiqlangan o'quv rejalari asosida universitet professor-o'qituvchilari tomonidan fanlar bo'yicha kontentlar (video-darslar, interaktiv materiallar) tayyorlash; Masofaviy ta'lim jarayoni uchun LMS ta'lim platformasini joriy etish.	Yil davomida	Universitet mablag'lari	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Multimedia markazi, institut direktorlari/fakultet dekanlari, oliy maktab boshliqlari/kafedra mudirlar

12.	Universitet ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislari bo'yicha xorijiy tillarda o'qitiladigan fanlar va maxsus kurslarning sonini ko'paytirish	Mavjud ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha xorijiy tillarda, ayniqsa, sharq tillarida o'qitiladigan fanlar va maxsus kurslar ro'yxatini shakllantirish; Ushbu fanlarni xorijiy tillarda dars o'ta oladigan mutaxassislarni belgilash; Xorijiy tillarda o'qitiladigan fanlar va maxsus kurslarning sifati va samaradorligi bo'yicha monitoring olib borish.	2026-yil may Yil davomida	Mablag' talab etilmaydi	O'quv ishlari bo'yicha prorektor; O'quv-uslubiy bo'lim; Ta'lim sifati nazorati bo'limi; Institut direktorlari/fakultetlar dekanlari
13.	Bitiruvchilarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlash, bandlik darajasini oshirish hamda universitet-ish beruvchi hamkorligini kuchaytirish	Yetakchi ish beruvchilar bilan strategik hamkorlik memorandumlarini kengaytirish; Kelajakka qadam markazi orqali bitiruvchi yoshlarni o'z biznesini boshlash, malakasini oshirish hamda ish bilan ta'minlashga ko'maklashish; Dual ta'lim, haq to'lanadigan amaliyotlarni keng joriy etish; Soft skills va raqamli ko'nikmalar bo'yicha treninglar o'tkazish; Talabalar uchun xorijiy mamlakatlarda amaliyot o'tashga sharoit yaratish.	Yil davomida	Mablag' talab etilmaydi	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Talabalar amaliyoti va karyera markazi, institut direktorlari/fakultet dekanlari, oliy maktab boshliqlari/kafedra mudirlar
14.	O'quv adabiyotlari fondini xorijiy, shu jumladan, elektron resurslarni yangilash va to'ldirish, fanlar bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarni yangi tendensiyalardan kelib chiqqan holda yangilab borish	Mavjud o'quv adabiyotlari va elektron resurslarni tahlil qilish, yangi tendensiyalarga mos kelmaydigan yoki eskirgan adabiyotlarni aniqlash; Xorijiy ta'lim muassasalarida foydalanilayotgan zamonaviy darsliklar va qo'llanmalarni o'rganish; ilg'or ta'lim texnologiyalari, xorijiy tajribalar va universitetda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini faol joriylash asosida o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish rejasini ishlab chiqish; Xorijiy adabiyotlar asosida ARM fondini boyitish va elektron resurslarni yangilash orqali raqamli kutubxona resurslarini kengaytirish.	Yil davomida	Universitet mablag'lari	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, O'quv-uslubiy bo'lim, ARM, institut direktorlari/fakultet dekanlari, oliy maktab boshliqlari/kafedra mudirlar

15.	Universitet talabalarida “Soft skills”ni rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurslarni yo‘lga qo‘yish	Talabalarining ish beruvchilar va mehnat bozorida talab etiladigan asosiy “Soft skills”, xususan, muloqot, muammolarni hal qilish, vaqtni boshqarish, jamoada ishlash kabi ko‘nikmalarga egaligini tahlil qilish; Talabalarining ehtiyojlarini tahlil qilgan holda ularga mos kurslar, ayniqsa, “Soft skills”ni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv kurslarini joriy etish.	Yil davomida	Mablag‘ talab etilmaydi	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, O‘quv-uslubiy bolim, Talabalarining amaliyot va karyera markazi, institut direktorlari/fakultet dekanlari
16.	Imkoniyati cheklangan talabalarga ko‘rsatiladigan ta‘lim xizmatlari turlarini ko‘paytirish va ularning sifatini yaxshilash, ta‘limda inklyuziv jarayonlarni rivojlantirish, adaptiv texnologiyalarni joriy etish	Imkoniyati cheklangan talabalarga mos ravishda qo‘shimcha ta‘lim xizmatlari turlarini ko‘paytirish. Ularga mos ravishda o‘quv-uslubiy materiallarni va adaptiv texnologiyalarni yaratish va joriy etish.	Yil davomida	Universitet mablag‘lari	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor; O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i, Istitut direktorlari va fakultet dekanlari, oliy maktab boshliqlari/kafedra mudirlar
17.	Dars mashg‘ulotlari bo‘yicha talabalar fikrini o‘rganish (feedback) hamda o‘zaro tashrif (peer review) tizimini rivojlantirish asosida talabalarga ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilab borish.	O‘qitish sifatini oshirish bo‘yicha talabalar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish. Mazkur so‘rovnomalar natijasida talabalar fikrini inobatga olgan holda talabalarga ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilash bo‘yicha reja va dasturlar ishlab chiqish; O‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish.	Yil davomida	Mablag‘ talab etilmaydi	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor; Ta‘lim sifati nazorati bo‘limi
18.	Universitet Til ta‘limi va konsalting markazi faoliyatini yanada takomillashtirish.	malaka oshirish kurslarida dars berishga jalb qilinadigan professor-o‘qituvchilarni xorijiy davlatlarda malaka oshirishga yuborish; Xorijiy hamkor ta‘lim muassasalari bilan qo‘shma malaka oshirish kurslarini joriy etish va Double Certificate (qo‘sh sertifikatlar) berish tizimini yo‘lga qo‘yish.	Yil davomida	Universitet mablag‘lari	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor; Til ta‘limi va konsalting markazi

III. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda ilmiy ishlar natijadorligini ta'minlash					
19.	Universitet asosiy shtatidagi professor- o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini 55 foizga yetkazish.	Tayanch doktorantura (PhD) 30 ta, doktorantura (DSc) 1 ta qabul kvotasiga muvofiq oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul amalga oshirish. Universitetda tahsil olayotgan tayanch doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar faoliyatini va ularning ilmiy ishlari tayyorlik darajasini tahlil qilish va monitoringdan o'tkazish; 2026-yil davomida ilmiy darajasiz universitet o'qituvchilarini mustaqil izlanuvchilikka qabul qilish.	2026-yil I chorak 2026-yil II va IV chorak	Davlat byudjeti mablag' kelishilgan holatda	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar boshqarmasi, Doktorantura bo'limi, Institut direktorlari, fakultetlar dekanlari, oliy maktab rahbarlari, kafedra mudirlari, Ilmiy markazlar rahbarlari
20.	Universitet tadqiqotchilarining xorijiy ilmiy tashkilotlar bilan hamkorligini kengaytirish.	Xorijiy davlatlardan tadqiqotchilar uchun taklif xatlarini olish; Universitet tadqiqotchilarini taklid xatlariga binoan qisqa muddatli ilmiy safarga yuborish.	2026-yil davomida	Davlat byudjeti mablag' kelishilgan holatda	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar boshqarmasi, Doktorantura bo'limi, Institut direktorlari, fakultetlar dekanlari, oliy maktab rahbarlari, kafedra mudirlari, Ilmiy markazlar rahbarlari
21.	Universitet professor-o'qituvchilari va olimlarining SCOPUS/Web of Science ma'lumotlar bazasidagi jurnallarda chop etiladigan maqolalar salmog'ini oshirish	Professor o'qituvchilar uchun SCOPUS/Web of Science ma'lumotlar bazasidagi jurnallar talablari asosida maqolalar tayyorlash bo'yicha seminarlar tashkil etish; SCOPUS/Web of Science ma'lumotlar bazasidagi jurnallarda maqolasi chop etilgan professor-o'qituvchilar va olimlarni qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish	Yil davomida	Universitet mablag'lari hisobidan	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar boshqarmasi, Institut direktorlari, fakultetlar dekanlari, oliy maktab rahbarlari, kafedra mudirlari,

			2026-yil yakuniga qadar		Ilmiy markazlar rahbarlari
22.	Universitetda 5 ta respublika va 12 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etish	5 ta Respublika va 12 ta xalqaro konferensiyalarning mavzulari va dasturlarini ishlab chiqish; Konferensiyalarni belgilangan muddatlarda tashkil etish hamda konferensiya materiallarini chop etilishini ta'minlash hamda OAV orqali yoritish.	2026-yil konferensiya lar o'tkazish dasturidaga rejasiga muvofiq	Universitet mablag'lari hisobidan	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar boshqarmasi, Institut direktorlari, fakultetlar dekanlari, oliy maktab rahbarlari, kafedra mudirlari, Ilmiy markazlar rahbarlari
IV. Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish					
23.	TDSHuning o'ziga xosligi, tarixiy rivojlanish xususiyatlari, ijtimoiy vazifasi va hozirgi zamon talablari asosida zamonaviy imiji, brendi va vizual identifikatsiyasini qayta yaratish (rebranding)	Universitet o'ziga xos brendi, madhiyasi, shiori va viziul identifikatsiyasini yaratish. Professor-o'qituvchilar va talabalar uchun universitet logotipi tushirilgan maxsus kiyim, suvenir, ofis jihozlarini ishlab chiqish va xarid qilish.	2026-yil mart va aprel oyida 2026-yil sentabr oyida	Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan	Universitet rektori, Universitet birinchi prorektori, Rektor maslahatchisi, Moliya iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, Institut direktorlari va fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy bo'lim, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Oliy maktab va kafedra mudirlari
24.	Universitetning yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar sohasini xalqarolashtirish	Universitet va xorijiy hamkor universitetlar bilan o'tkaziladigan madaniy-ma'rifiy qo'shma tadbirlar va festivallar rejasini ishlab chiqish. Sharq mamlakatlaridagi hamkor universitetlar jamoasi bilan talabalarning ko'klam va kuz festivallarini o'tkazish.	2026 yil fevral oyida 2026 yil aprel va oktabr oylarida	Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan	Universitet birinchi prorektori, Rektor maslahatchisi, Institut direktorlari va fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy bo'lim, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Oliy maktab va kafedra mudirlari

25.	Dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini yoritish, turli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borishga doir ishlar	Dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini yoritish, turli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borishga doir "Jaholatga qarshi ma'rifat", "O'zbekiston - bag'rikeng diyor" "Biz "ommaviy madaniyat"ga qarshimiz", "Diniy bag'rikenglik ota-bobolarimizdan meros bo'lgan milliy qadriyat" mavzularida tadbir va uchrashuvlar tashkil etish. "Glabollashuv sharoitida yoshlar ma'naviyati" mavzuida mamlakatimizdagi yetakchi ekspertlar va universitetdagi Xalqaro munosabatlar oliy maktabi professor-o'qituvchilari ishtirokida ilmiy - amaliy davra suhbatlari o'tkazish.	O'quv yili davomida 2026-yilning noyabr oyining uchinchi o'ntunligida	Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan	Universitet birinchi prorektori, Rektor maslahatchisi, Institut direktorlari va fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy bo'lim, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Oliy maktab boshlig'i
26.	Ijtimoiy tarmoqlar va elektron platformalarda talabalar bilan ishlash	Bugunning raqamli avlodi hisoblangan yoshlarni ijtimoiy tarmoqlar va turli elektron platformalardagi zararli va feyk xabarlardan himoya qilish hamda axborotni saralab olish malakasini shakllantirish maqsadida "Internet va tahdidlar" yo'nalishi doirasida turkum tadbirlar tashkil etish. Universitet yoshlarining "Sharqdan xabarlar" onlayn elektron gazetasini chop etib borish.	O'quv yili davomida 2026-yil davomida har oyda 1 marotabadan 12 ta soni chop etiladi	Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan	Universitet birinchi prorektori, Rektor maslahatchisi, Institut direktorlari va fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy bo'lim, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Oliy maktab boshlig'i, Xalqaro jurnalistika ta'lim yo'nalishi mas'uli, Tyutorlar
27.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni keng joriy etish	Sharqshunos-talabalarining "Sharq yulduzi" teatr-studiyasi, talabalarining "Sanduvoch" va "Dutorchilar" ansambli, "Sharq navolari" xor jamoasi faoliyatini takomillashtirish. Talabalar o'rtasida sportning futbol, voleybol, basketbol, shaxmat, yengil atletika va		Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan	Universitet birinchi prorektori, Rektor maslahatchisi, Institut direktorlari va fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy

	stol tennisi bo'yicha "Rektor kubogi", "Sport yo'li – sog'lik yo'li" shiori ostida yosh o'qituvchilar va talabalar o'rtasida sport musobaqalari tashkil etish, talabalar turar joyida o'qituvchilar va talabalar ishtirokida fakultetlararo spartakiada o'tkazish. Universitetning yoshlar bilan ishlash bo'yicha "Sharqdan xabarlar" https://t.me/sharq_xabar telegram kanali hamda kitob va kitobxonlikka yo'naltirilgan, kitob mutolaasini targ'ib etuvchi maxsus "Nur Sharqdan" telegram kanali https://t.me/nursharqdan_kitobxonlik faoliyati rivojlantiriladi. Shuningdek, "Siyosatdon" intellektual loyihasi doirasi yosh siyosatchi klubining https://sharqshunos_tahlilchilar telegram kanali faoliyati kengaytirish. Ijodkor talabalarning "Mangu bitig" adabiy ustaxonasi faoliyatini takomillashtirish. Universitet talabalari o'rtasida "Eng yaxshi kitobxon" va "Ogahiy nomidagi stipendiya" uchun tanlovlarni tizimli tashkil etish va o'quv yili yakunida sovrindorlarni taqdirlash. Universitet talaba qizlari uchun "Kasb sirlari" mavzusida treninglar, psixolog va Xotin-qizlar tashkiloti hamkorlikda pazandachilik kurslari ishlarini yo'lga qo'yish.	2026-yil davomida 2026-yil mart, aprel va may oylarida	bo'lim, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Oliy maktab va kafedra mudirlari, matbuot xizmati, psixolog
--	--	--	--

28.	Universitet talabalari o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish ga yo'naltirilgan profilaktik tadbirlar	Talabalar o'rtasida xuquqbuzarlik, jinoyatchilik, giyoxvandlik, diniy ekstremizm xolatlarini oldini olish yuzasidan xuquqni muxofaza qilish organlari bilan xamkorlikda manzilli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish. Talabalarning ichki ishlar va nazorat organlari xodimlari bilan "Ochiq muloqot"larini tashkil etish	2026-yil davomida 2026-yil may va oktabr oylarida	Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan	Universitet birinchi prorektori, Rektor maslahatchisi, Institut direktorlari va fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy bo'lim, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, profilaktika inspektori (M. Jo'rayeva)
V. Xalqaro hamkorlikni tashkil etish va rivojlantirish					
29.	Xalqaro ilmiy loyihalar bilan ishlash uchun maxsus (Grant Office) ni tashkil qilish	Xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va muvofiqlashtirish bo'yicha Grant Ofisi tashkil etish; 3–4 kishidan iborat professional guruhni shakllantirish; Xalqaro grantlar bo'yicha ichki ma'lumotlar bazasini yaratish; Professor-o'qituvchilarni loyihalar yozishga tayyorlash, tarjima, tahrir; Xalqaro hamkorlar bilan qo'shma loyihalar yaratish; Loyihalarni sifatli yozish uchun ichki ekspertiza tizimini yaratish; Grant loyihalarini monitoring qilish va hisobdorlik	2026-yil davomida	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor Xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limi boshlig'i, Institut direktorlari, fakultetlar dekanlari
30.	TDSHUda har yili xorijiy olimlar, professor-o'qituvchilar ishtirokida "Visiting Professor Week" va "International Lecture Series" ni yo'lga qo'yish	QS va THE reytinglarida yuqori o'rinlardagi universitetlardan visiting professorlar ro'yxati shakllantirish va rasmiy taklif xatlari yuborish; Kamida 10 nafar xorijiy professor uchun ma'ruza, seminar va uchrashuvlar dasturi tuziladi (offline/online formatda); Ma'ruzalar TDSHU YouTube va boshqa internet platformalarda tarqatilib,	2026-yil davomida	Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari, xalqaro grantlar va hamkor universitetlar mablag'lari hisobidan.	Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor, O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Xalqaro hamkorlik bo'limi, Media markazi, Institut direktorlari va fakultet dekanlari.

		universitetning xalqaro media ko'rinishi kuchaytiriladi; Talabalar va professor-o'qituvchilar uchun visiting professorlar bilan ilmiy mentoring va networking sessiyalari tashkil etiladi.			
31.	TDSHU bitiruvchilarini birlashtirish maqsadida Alumni Network dasturini ishga tushirish va faoliyatini yo'lga qo'yish	TDSHU bitiruvchilari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish; "TSUOS International Alumni Platform"ni ishga tushirish; Xorijdagi bitiruvchilar bilan doimiy aloqani yo'lga qo'yish;	2026-yil davomida	Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari Xorijiy homiyarlar va Alumni donorlar jamg'armasi	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, Xalqaro hamkorlik bo'limi, Institut direktorlari va fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash bo'limi.
32.	Malayziya Milliy universiteti Islom Hadhari instituti bilan hamkorlikda TDSHU uchun "Malay tilini o'qitishning yuqori darajasi moduli" loyihasi amalga oshirish	Malay tiliga bo'lgan talabni aniqlash maqsadida o'qituvchilar va talabalar bilan intervyular, davra suhbatlari hamda so'rovnomalar o'tkaziladi. So'rovnomalar natijalariga asosan loyiha a'zolari tomonidan TDSHuda modulning dastlabki tuzilmasi yaratiladi. Tayyor bo'lgan malay tili modulining qoralamasi tekshiruv va takomillashtirish hamda modulning samaradorligini baholash maqsadida mutaxassislar tomonidan ko'rib chiqiladi. Mutaxassislar tomonidan tasdiqlangandan so'ng talabalar guruhida sinov tariqasida yo'lga qo'yiladi.	2026-yil mart 2026-yil iyun 2026-yil avgust 2026-yil sentyabr	Malayziya tomonidan 8 200 AQSH dollari TDSHU tomonidan 5 000 AQSH dollari miqdorida moliyalashtiriladi. Loyihaning umumiy qiymati 13 200 AQSH dollarini tashkil etadi	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Janubiy-Osiyo tillari oliy maktabi, Xalqaro hamkorlik bo'limi

33.	Pokiston Islom Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi bilan hamkorlikda tarjimonlarni tayyorlashga qaratilgan smart o'quv xonasini tashkil etish	O'zaro kelishuv asosida zamonaviy o'quv xonasi uchun TDSHUda joy ajratiladi hamda xona ta'miri loyihasi, zarur texnik baza kelishish; Elchixona tomonidan xona zamonaviy tarjimonlik uskunalari va moddiy texnika bilan jihozlash;	2026-yil mart 2026-yil avgust	TDSHU tomonidan maxsus xona ajratiladi. Elchixona tomonidan to'liq jihozlanadi	Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, Janubiy-Osiyo tillari oliy maktabi, Xalqaro hamkorlik bo'limi
34.	Yaponiyaning Yamagata universiteti va Yaponiya Biznes ko'nikmalarini rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda TDSHUda Kasbiy tayyorgarlikka yo'naltirilgan Yaponiya-O'zbekiston xalqaro markazini ochish va faoliyatini yo'lga qo'yish	Markazning faoliyati bilan bog'liq Yo'l xaritasi, reja va nizomni ishlab chiqish.	2026-yil fevral	TDSHU tomonidan maxsus xona ajratiladi. Yapon tomonidan to'liq jihozlanadi	Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori, Yaponshunoslik oliy maktabi, Talabalar amaliyoti va karyera markazi, Xalqaro hamkorlik bo'limi
35.	Xorijiy hamkor oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlariga TDSHU talabalarini stajirovkaga yuborish	Hamkor oliy ta'lim muassasalari bilan talabalarni akademik almashinuv va stajirovkaga yuborish bo'yicha kelishuvga erishish; TDSHU 2-4-kurs bakalavriat va 1-2 kurs magistratura talabalari o'rtasida tanlov o'tkazib, sharq tillarini puxta o'rganganlarini saralab olish. Talabalarni stajirovkaga yuborish hamda ular bilan xorijiy davlatlarda bo'lgan davrda muloqotlar tashkil etish.	2026-yil davomida 2026-yil I-II-chorak 2026-yil davomida	TDSHU tomonidan maxsus xona ajratiladi. Yapon tomonidan to'liq jihozlanadi	Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori, Yaponshunoslik oliy maktabi, Talabalar amaliyoti va karyera markazi, Xalqaro hamkorlik bo'limi

36.	Xalqaro reyting agentliklari bilan aloqalarni kuchaytirish orqali xalqaro brandingni oshirish	Universitetning xalqaro brendini kuchaytirish uchun universitetdagi o'quv dasturlar va ilmiy tadqiqot ishlari xalqaro reyting agentliklari tomonidan belgilangan mezonlarga muvofiq sifatli amalga oshiriladi; Reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash uchun universitetning xalqaro hamkorliklari doirasida xorijiy talabalar hamda xalqaro ilmiy doira vakillarini jalb qilish kengaytiriladi; Ilmiy va akademik natijalarini global miqyosda targ'ib qilish uchun maxsus marketing tadbirlari o'tkaziladi. Xalqaro brandingni oshirish maqsadida TDSHU QS, THE, WURI va Greenmetrics tomonidan xalqaro darajada tashkil etiladigan ilmiy, akademik va marketing bo'yicha yillik sammitlarida faol qatnashiladi.	2026-yil, martdan	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan	Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limi boshlig'i, Institut direktorlari, fakultetlar dekanlari
VI. Universitet faoliyatini raqamlashtirish va ta'lim jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish					
37.	Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish va zamonaviy tizimlar xavfsizligini ta'minlash	Universitetning axborot tizimlarini MAI sifatida belgilangan tartibda yagona reyestrda kiritish hamda "Kiberxavfsizlik markazi DUK" dalolatnomasiga ega bo'lish.	2026-yil aprel-dekabr	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan	Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor Raqamli texnologiyalar markazi
38.	Ilmiy faoliyatni to'liq qamrab olish va statistik ko'rsatkichlarni uzluksiz monitoring qilish imkonini beruvchi https://aps.tsuos.uz/ tizimini yanada takomillashtirish.	Ilmiy maqolalar, grantlar, konferensiyalar, h-index, Scopus/WoS ko'rsatkichlarini avtomatik yig'ish va yangilash; Fakultetlar, kafedralar, ilmiy bo'limlar va markazlar faoliyatidan keluvchi barcha statistik ma'lumotlarni yagona baza orqali yig'ish; Tizimdan foydalanishni yengillashtirish, tezkor ma'lumot olish imkoniyatini yaratish; https://aps.tsuos.uz/ va GoogleScholar tizimlarini to'liq integratsiya qilishga erishish	2026-yil yanvar	Universitet byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori Barcha prorektorlar Media markazi, Raqamli texnologiyalar markazi

39.	Universitet talabalarining ma'naviy-ma'rifiy sohadagi “Ijtimoiy faollik indeksi”ni baholash bo'yicha elektron platforma yaratish va uning ishini yo'lga qo'yish	2025 yil 10 martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 149-son qarori asosida talabalarining ma'naviy - ma'rifiy sohadagi “Ijtimoiy faollik indeksi”ni baholash bo'yicha universitetning elektron platformasini yaratish va uning ishini yo'lga qo'yish. Ta'lim grantiga talabgor talabalarining ijtimoiy faolligi bo'yicha amalga oshirgan ishlari natijalarini universitet platformasiga joylab borishlari va ularni qanday baholanib borayotganligi monitoringini kuzatishni yo'lga qo'yish	2026-yil yanvar oyida 2026-yilning birinchi yarim yilligi davomida	Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan	Universitet birinchi prorektori, Rektor maslahatchisi, Institut direktorlari va fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy bo'lim, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Oliy maktab va kafedra mudirlari, Korrupsiyaga qarshi kurash bo'limi
VII. Moddiy-texnik bazani mustahkamlash					
40.	Universitetning Amir Temur ko'chasi, 20-uyda joylashgan hududidagi foydalanilmayotgan binocular qurilmasi rekonstruksiya asosida Yaponiyaning “Balcom” kompaniyasi hamkorligida talabalar markazi barpo etish.	Markazini tashkil etish uchun investor bilan muzokaralar o'tkazish; Markaz binosini qurish bo'yicha xujjatlarini tayyorlash. Tayyor bo'lgan hujjatlarni Shaffof qurilish DUK ekspertizasidan o'tkazish	2026-2027 yil	“Balcom” kompaniyasi investitsiyasi hisobiga	Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
41.	Universitetning asosiy o'quv binosi D blokida Janubiy Koreyaning Gyeongkuk Milliy universiteti hamkorligida Multimedia markazi tashkil etish.	“Multimedia markazi” studiyasini qurish bo'yicha xujjatlarini tayyorlash. Tayyor bo'lgan hujjatlarini Shaffof qurilish DUK ekspertizasidan o'tkazish	2026-2027-yil	Gyeongkuk Milliy universiteti investitsiyasi hisobidan	Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, Media markaz direktori

				davlat byudjeti hisobiadn)	
42.	“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari o‘tqazish.	Ko‘chat o‘tqaziladigan yer maydonlari kontorini aniqlash va ekishga tayyorlash; Bahor va kuz mavsumida mevali va manzarali ko‘chatlar o‘tqazish.	2026-yil mart-noyabr (bahor va kuz mavsumi	Universitet budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, bosh muhandis

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor



Q.Omonov

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Z.Alimov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor



D.Sayfullayev

Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor



N.Karimov

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor



Sh.Mirziyatov